

QANDLI DIABET KASALLIGIDA TURLI XIL YOSHDAGI BEMORLARNING QON VA SIYDIK TARKIBIDAGI GLYUKOZANI VA KETON TANACHALARINI SUTKA DAVOMIDA O`ZGARISHI.

Khakberdiev Bayramali Shamsiddin o`g`li – bakalavr talabasi;

bayramalihaqberdiyev1998@gmail.com

Djurayeva Zilola Aramovna –

assistant;

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti,


Endokrinologiya kafedrası.

Samarqand sh. O`zbekiston Res.

Annotatsiya: Maqolada qandli diabetning bugungi kunda yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda juda ko`p tarqalgan surunkali xastalik ekanligini, dunyoning hamma mamlakatlarida bunday insonlarning soni har yili ko`payib borayotganligini va turli xil yoshdagi qandli diabet kasalligiga uchragan bemorlarning qon va peshobidagi qandni va keton tanachalarini kun davomida o`zgarishini amaldagi metodlar yordamida o`rganilganlik to`g`risida ma`lumotlar berilgan.

Kalit so`zlar: endokrinologiya dispanseri, glyukoza, qandli diabet, 1-tur, 2-tur, insulinorezistentlik, insulin, insulinoterapiya, immunoreaktiv insulin, C-peptid, semizlik, parhez, keton tanachalari, umumiy siydik tahlili, biokimyoviy tahlil.

Mavzuning dolzarbligi: Qandli diabet xastaligi hozirda "yosharayotgan" kasalliklar qatoriga kirib bo`lgan. Bugungi kunda yoshlar va hatto bolalar orasida ham qandli diabet kasalligi keng tarqalganligini ko`rishimiz mumkin.



Qandli diabet bugungi kunda yuqori rivojlanayotgan mamlakatlarda eng ko'p tarqalgan surunkali xastalik. Dunyoning barcha mamlakatlarida bunday bemorlar soni har yili ortib boryapti va ushbu kasallikka chalinganlar soni 380 mln kishidan ortib ketdi. Kasallar soni har yili 5-7 %, har 10-12 yilda esa ikki barobar ko'paymoqda. Agarda qandli diabet shunday davom etadigan bo'lsa 2030-yilda ularning soni 560 mln ta bo'lish ehtimoldir. Epidemiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda katta yoshli aholining 5% ga yaqini diabet kasalligiga uchragan. 2011-yilda bemorlar soni 122460 dan ortib ketdi. Bundan 16 % ini qandli diabetning 1-turi, 84 % ini esa 2-turi tashkil etdi. Ularning 16 % i doimiy insulin ukolini oladilar, boshqalari esa parhez saqlashadi, jismoniy faollik va qand miqdorini kamaytiruvchi dorilar ichishadi. Diabeti bo'lgan bemorlarning deyarli yarmini ayollar tashkil qiladi. JSST ma'lumotiga ko'ra, tug'ruq yoshidagi 0,35 % ayollarning diabeti bo'lgan. Hamma homilador ayollarning 0,2- 0,3% ini homilador bo'lishdan avval diabeti bo'lgan ayollar tashkil qiladi. Homiladorlik davrida yangi aniqlangan qandli diabet barcha homilador ayollarning 4% ida aniqlanadi. Hozirgi kunda tarqalishi va uchrashiga ko'ra qandli diabet qon-tomir va onkologik kasalliklar ichida 3-o'rindadir. Endokrin kasalliklari ichida esa 1-o'rindadir.

Qandli diabet (*diabetes mellitus*) – tizimli geterogen kasallik hisoblanib, absolyut (1-turda) yoki nisbiy (2-turda) insulin yetishmovchiligi oqibatida rivojlanadi, birinchi navbatda uglevod almashinuvining buzilishi, so'ngra moddalar almashinuvining barcha turdagi buzilishiga, oqibatda esa organizmning barcha funksional tizimlarini izdan chiqishiga olib keladi.

Qandli diabetning 1-2-turlari ikki xil nozologik shaklda namoyon bo'ladi. Qandli diabetning ikkala turida ham surunkali giperglikemiyaning rivojlanishi asosiy patogenetik pog'ona hisoblanadi.

Qandli diabetning 1-turi bilan, odatda, 30 yoshgacha ko'proq esa 14 va 25 yoshgacha bo'lgan 0,25 % yoshlar xastalanadi. Bu kasallik bilan xastalangan bemorlarning 54 % ini bolalar tashkil etadi.

Qandli diabetning 1-turi patogenezi oshqozon osti bezi orolchalari Beta-hujayralarining autoimmun zararlanishi mutloq insulin yetishmovchiligi bilan kechadi.

Qandli diabetning 2-turi – eng keng tarqalgan kasallik bo'lib, genetik va noto'g'ri hayot tarsi fonida rivojlanadi. Bu turi, odatda, 40 yoshdan keyin namoyon bo'ladi, bunda insulin ishlab chiqarilishi saqlangan, lekin insulinorezistentlik holati bilan keladi. Parhez qilish va jismoniy zo'riqishlar natijasida insulinga sezuvchanlik ortadi. Insulinoterapiyaga ko'rsatma bo'lib umumiy holsizlik, qondagi glyukoza miqdorining yuqori ko'rsatkichi, qonda qand miqdorini pasaytiruvchi vositalarning maksimal dozasi berilishiga qaramasdan immunoreaktiv insulin va C-peptid ko'rsatkichining kamayishi hisoblanadi.

Yuqoridagi muommolarni o'rganish, ularni hal qilish uchun tavsiyalar berish va gigienik qoidalarni bilish maqolaning dolzarbligi va ilmiy ahamiyati kattaligidan dalolat beradi desam mubolag'a bo'maydi.

Ishning maqsadi: Turli xil yoshdagi qandli diabet kasalligiga uchragan (chalingan) bemorlarning qoni tarkibidagi va peshobidagi qand (glyukoza) ni va keton tanachalarini sutka ya'ni kun davomida o'zgarishini kuzatib borishdir.

Tadqiqot obektlari: Samarqand viloyat endokrinologiya dispanseri bemorlarini, ularning qonini, peshobidagi qand (glyukoza) ni, keton tanachalarini aniqlash va ilmiy manbalar bilan solishtirishni so'ng taxlil qilish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Tadqiqot metodlari: Och qoringa nahorda barmoqdan qon olish (qandli diabetga), glyukoza uchun peshob (siydik) tahlili, qondagi insulin, C-peptid va glikozil gemoglobin darajasini biokimyoviy usulda aniqlash.

Natijalar va ularning tahlili: Qandli diabet alomatlari yaqqol va qanchalik ko'p namoyon bo'lmasin uni tashxisini qo'yish uchun albatta qondagi glyukoza (qand) ni miqdorini me'yoridan oshganligi aniqlash kerak. Alohida olingan siydik (peshob) dagi glyukoza miqdoriga qarab qandli diabet tashxisini qo'yolmaymiz.

Qondagi glyukoza miqdorini qiymatlari normada quyidagicha:

-Nahorda, och qorinda glyukoza miqdori 5.5 mmol/l dan 6.1 mmol/l gacha ko'rsatkichda bo'lib, qandli diabetda uning miqdori 6.7 mmol/l ga teng bo'ladi yoki undan baland ko'rsatkichni ko'rsatadi. Turli xil yoshdagi bemorlarning qon va peshobidagi qand (glyukoza) miqdori o'zgarib boradi. Samarqand viloyat endokrinologiya dispanseri laboratoriyasidagi kuzatish natijalariga ko'ra kun (sutka) davomida qand miqdoridagi o'zgarishlar ko'proq 25-30 yoshdan oshgan bemorlarda kuzatilishni ko'rib chiqamiz.

25-30 yoshdan bemorlarning qoni va peshobidagi qand (glyukoza) miqdorining kun davomida o'zgarishi.

(30 nafar bemorlarda aniqlangan, o'rtacha ko'rsatkich olingan)

№	Bemorlarning yoshi	Naxorgi qondagi qandning miqdori Mmol/l	Naxordan keyingi qondagi qandning miqdori; Mmol/l	Siydikdagi qandning miqdori; %	Normada; Mmol/l (qondagi)
1	30	11,3	12,7	1,2	3,2-6,1
2	35	10,3	11,3	1,6	3,2-6,1
3	42	7,6	8,7	0,6	3,2-6,1
4	52	8,5	10,7	1,1	3,2-6,1
5	55	8,7	9,4	1	3,2-6,1
6	58	7,8	9,8	0,6	3,2-6,1
7	63	8,3	9,6	1,4	3,2-6,1

1-jadval

Kuzatish natijasida tekshirish olib borgan 30-63 yoshdagi bemorlarda nahorgi qon tarkibidagi glyukozaning miqdori normaga nisbatan 1,5-5,2 mmol/l miqdorda oshganligi aniqlandi. Nahordan keyingi qon tarkibidagi glyukozaning miqdori ovqatlanliklari hisobiga 2,6-6,6 mmol/l ga ko'paydi. Ikkala vaqt o'rtasidagi nisbat taqqoslanganda nahordan keyin bemorlarning qon tarkibidagi glyukozasining miqdori ochlik vaqtiga nisbatan 1,1-1,4 mmol/l ga ko'payganligi aniqlandi.

12 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan bemorlarning qoni va peshobidagi qand (glyukoza) miqdorining kun davomida o'zgarishi.

№	Bemorlarning yoshi	Naxorgi qondagi qandning miqdori Mmol/l	Naxordan keyingi qondagi qandning miqdori; Mmol/l	Siydikdagi qandning miqdori; %	Normada; Mmol/l (qondagi)
1	12	7,2	8,4	0,5	3,2-6,1
2	14	8	9,9	0,4	3,2-6,1

3	16	8,3	9	1,1	3,2-6,1
4	18	8,1	9,6	0,9	3,2-6,1
5	21	6,6	7	0,2	3,2-6,1
6	23	7,1	8,1	0,6	3,2-6,1
7	25	7,6	8,3	1	3,2-6,1

2-jadval

12 yoshdan 25 yoshgacha tekshirgan bemorlarimizda nahorgi qon tarkibidagi glyukozaning miqdori normaga nisbatan 0,5-2,2 mmol/l miqdorda oshganligi aniqlandi. Nahordan keyingi qon tarkibidagi glyukozaning miqdori ovqatlanliklari hisobiga 0,9-3,8 mmol/l ga ko'paydi. Ikkala vaqt o'rtasidagi nisbat taqqoslanganda nahordan keyin bemorlarning qon tarkibidagi glyukozaning miqdori ochlik vaqtiga nisbatan 0,4-1,6 mmol/l ga oshganligi aniqlandi.

Qondagi qandning oshish miqdorini yoshga xos ko'rsatkichlarini taqqosladik. Natijada 30 yoshdan oshgan bemorlarda 25 yoshdan oshmagan bemorlarga nisbatan qon tarkibidagi glyukoza miqdori balandligi aniqlandi.

Xulosa: Qandli diabet kasalligida organizmning funksional holatida yuz beradigan o'zgarishlar jarayoni atroflicha o'rganildi va quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ishni bajarish vaqtida bemorlarning qon tarkibidagi glyukozaning miqdorini yoshga xos o'zgarishlari hamda kun davomida o'zgarishlari aniqlandi.

2. Kuzatish natijasida tekshirish olib borilgan 30-63 yoshdagi bemorlarda nahorgi qon tarkibidagi glyukozaning miqdori normaga nisbatan 1,5-5,2 mmol/l miqdorda oshganligi aniqlandi.

3. Nahordan keyingi qon tarkibidagi glyukozaning miqdori ovqatlanliklari hisobiga 2,6-6,6 mmol/l ga ko'paydi. Ikkala vaqt o'rtasidagi nisbat taqqoslanganda nahordan keyin bemorlardagi qon tarkibidagi glyukozaning miqdori ochlik vaqtiga nisbatan 1,1-1,4 mmol/l ga oshganligi aniqlandi.

4. 12 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan bemorlarimiz tekshirilganda nahorgi qon tarkibidagi glyukozaning miqdori normaga nisbatan 0,5-2,2 mmol/l miqdorda oshganligi aniqlandi.

5. Nahordan keyingi qon tarkibidagi glyukozaning miqdori ovqatlanliklari hisobiga 0,9-3,8 mmol/l ga ko'paydi. Ikkala vaqt o'rtasidagi nisbat taqqoslanganda nahordan keyin bemorlardagi qon tarkibidagi glyukozaning miqdori ochlik vaqtiga nisbatan 0,4-1,6 mmol/l ga oshganligi aniqlandi.

6. Bemorlarda qon tarkibidagi glyukozaning oshish miqdorini yoshga xos ko'rsatkichlarini taqqosladik. Natijada 30 yoshdan oshgan bemorlarda 25 yoshdan oshmagan bemorlarga nisbatan qondagi glyukozaning miqdori balandligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismoilov S.I. Endokrinologiyadan tanlangan ma`ruzalar. –Toshkent, 2005.-B. 105-183.
2. Shagzatova B.X. va boshqalar. “Endokrinologiya”. Darslik. – Toshkent. TTA nashriyoti.2019-yil
3. Najmutdinova D.Q. “Endokrinologiya” bo’yicha davolash va tibbiy pedagogika fakulteti 4-kurs talabali uchun ma’ruzalar matni to’plami. – Toshkent. TTA nashriyoti. 2003-yil.
4. Belabolkin M.I. Diabetologiya. Monografiya. – Moskva. Meditsina, 2002-yil.
5. Terapevticheskiy spravochnik Vashington, perevod s ang., razdel “Endokrinologiya”. Moskva. Meditsina, 1996-yil.
6. Najmutdinova D.Q. “Endokrinologiya umumiy amaliyot shifokori faoliyatida”. O’quv qo’llanma. Toshkent. TTA nashriyoti. 2005-yil.